



Maktablar tizimi rahbari Melissa Aviles-Ramos

2025-yil 18-iyun

Hurmatli oilalar,

Maktablarimiz farzandlaringiz tashrifi bilan yanada fayzli bo'ladi — va biz hali ishimizni tugatmadik! Maktablar **2025-yil 26-iyun, payshanbagacha** faoliyatini davom ettiradi va har bir kun hali ham mazmunli ta'lim olish onlari, quvonchli bayramlar va unutilmas xotiralarga boydir.

Iyun yilning o'ziga xos davridir. O'quvchilar muhim ta'lim jarayonini yakunlamoqda, do'stlari va o'qituvchilari bilan bog'lanmoqda va hayajonli o'zgarishlarga tayyorlanmoqda. Ajoyib xodimlarimiz ularga yordam berish, ularni qo'llab-quvvatlash va ushbu so'nggi kunlarda yo'l ko'rsatish uchun har kuni shu yerdalar. Biz har bir o'quvchining kuchli yakunini istaymiz!

Har bir kun muhim. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalar bog'chasiga muntazam qatnagan maktabgacha yoshdagi bolalarda ikkinchi sinfgacha doimiy dars qoldirish ehtimoli *beshtin barobar* kamroqdir. Bolalar bog'chasidan boshlab, barqaror davomat qayd etish odatlari sinf darajasida kitob o'qish ko'nikmalari darajasiga erishish, uzoq muddatli muvaffaqiyati o'zlashtirish va oxir-oqibat, o'rta maktabni muvaffaqiyatli tamomlash imkonini beradi. Hozir biz shakllantirayotgan odatlar kelajak uchun eshiklarni ochadi.

Yozgi jazirama kunlarga qaramay, maktablarimiz barcha uchun salqinlikni ham, samaradorlikni ham ta'minlamoqda! Maktablarimiz — bu borish uchun eng yaxshi maskan!

- Sinfxonalarimiz yozgi ob-havoga tayyor: konditsionerlar bor, shuning uchun qulay ta'lim muhiti muhayyo.
- "Spirit Week" haftaliklarimiz to'liq shaklda davom etmoqda, maktablarimizga quvonch, energiya va hamjihatlik hissini olib kelmoqda.
- Yana ko'pgina narsalar bor — bu so'nggi o'quv va kulgu kunlarini o'tkazib yubormang!

Ekstremal jazirama paytlarda xavfsiz qolish haqida ko'proq ma'lumot olish uchun iltimos, Ob-havo bilan bog'liq favqulodda vaziyatlardagi tartib-qoidalar sahifamizga tashrif buyuring: Weather Emergency Procedures webpage (schools.nyc.gov/emergency-readiness). U sahifada, shuningdek, kelgusi kunlarda yangilangan ob-havo ma'lumotlari bilan tanishish uchun Milliy ob-havo xizmati havolasi mavjud.



Maktablar tizimi rahbari Melissa Aviles-Ramos

Keling, qolgan har bir kunni qadrlaylik. Agar farzandingizni maktabga olib kelishda yordam kerak bo'lsa, biz bu yerda sizga yordam berish shaymiz. **Itimos, maktabingiz direktori, direktor o'rinbosari, maktab maslahatchisi yoki ota-ona bilan ishlovchi muvofiqlashtiruvchiga murojaat qiling** — biz birgalikda farzandingizning o'quv yilini ajoyib yakunlashini ta'minlaymiz.

Farzandingiz ta'limidagi hamkorligingiz uchun tashakkur bildiramiz. Keling, bu o'quv yilini faxr, maqsad va ko'plab tabassumlar bilan yakunlaylik.

Hamkorlikda,

A handwritten signature in black ink, appearing to read 'Melissa Aviles-Ramos'.

Melissa Aviles-Ramos
Maktablar tizimi rahbari